



UDK:930

*Ravshan SIDDIKOV,*  
O'zMU dotsenti, t.f.n  
E-mail:ravsidd@mail.ru

*Renessans ta'lim universiteti professori, t.f.d Sh.Ergashev taqrizi asosida*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ROSSIYA FEDERATSIYASI O'RTASIDAGI OLIY TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasining oliy ta'lim va malakali kadrlar tayyorlashdagi hamkorligini kengayib borishi, uning tendensiyalari va Rossiyaning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarining zamon talabiga javob beradigan kadrlarni tayyorlashdagi ishtiroki ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun Rossiya oliy o'quv yurtlari bilan birgalikda qo'shma dasturlar, fakultet va kafedralar faoliyati asosida talabalarni o'qitish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlari:** Oliy ta'lim, modernizatsiya, xalqaro hamkorlik, xorijiy filiallar, qo'shma dastur, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati, ilmiy-pedagogik kadrlar.

## НОВЫЙ ЭТАП СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ

Аннотация

В статье рассматривается расширение сотрудничества Нового Узбекистана и Российской Федерации в сфере высшего образования и подготовки квалифицированных кадров, его тенденции, участие филиалов ведущих российских вузов в подготовке кадров, отвечающих запросам современной эпохи. Также освещаются вопросы подготовки студентов, повышения квалификации научно-педагогических кадров на базе совместных программ, факультетов и кафедр с российскими вузами для нужд экономики Узбекистана.

**Ключевые слова:** Высшее образование, модернизация, международное сотрудничество, зарубежные филиалы, совместные программы, подготовка кадров, качество образования, научно-педагогические кадры.

## A NEW STAGE OF COOPERATION IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE RUSSIAN FEDERATION

Annotation

This article examines the expansion of cooperation between the New Uzbekistan and the Russian Federation in higher education and the training of qualified personnel, its trends, and the participation of branches of leading Russian universities in training personnel who meet the demands of the modern era. It also covers issues of student training and advanced training for academic and teaching staff through joint programs, faculties, and departments with Russian universities to serve the needs of the Uzbekistan economy.

**Key words:** Higher education, modernization, international cooperation, foreign branches, joint programs, personnel training, quality of education, scientific and pedagogical personnel.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi dunyoni ilg'or tajribasiga tayangan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida isloh qilindi. Shuningdek yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha halqaro standartlarni joriy qilish, ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish va bu sohada Rossiya Federatsiyasi hamda dunyoni rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlik borasida ma'lum natijalarga erishildi. Harakatlar strategiyasida mamlakatni modernizatsiya qilishda uzluksiz ta'lim tizimi hamda inson kapitalining ahamiyatini inobatga olib oliy ta'limni yanada rivojlantirishda birinchi navbatda ishonchli hamkor hisoblangan Rossiya Federatsiyasi bilan ta'lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi oliy ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik masalalari ko'plab O'zbekiston va Rossiya olimlari Glumova, YE. P., Muxamedova, S. X., Rashidova, N. B. (2022), Muxtorova, I. Y. (2022), Troitskiy, YE. F., Yun, S. M. (2021), Davronova, M. N. (2023), Pogorelskaya, A., Kobzeva, O. (2023) va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan etilgan. Ularda

hamkorlikni qirralari, ya'ni Rossiya yetakchi oligohlarini O'zbekistondagi faoliyati va qo'shma dasturlar asosida kadrlar tayyorlash masalalari hamda aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari tahlil qilingan[1].

**Tadqiqot metodologiyasi** Maqolada O'zbekiston va Rossiyaning oliy ta'lim sohasidagi hamkorligini yoritishda tizimlashtirish, faktlar, hamda xulosalarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, tarixiylik va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzyoyevning Harakatlar strategiyasiga asoslangan xalqaro munosabatlardagi ochiqlik siyosati barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim va madaniy-gumanitar sohada chet el davlatlari bilan hamkorlikni yanada kengayishiga xizmat qildi. Mamlakat oliy ta'lim tizimida boshlangan modernizatsiya jarayonlari natijasida oliy malakali kadrlar tayyorlash borasida xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalar yangi pog'onaga ko'tarildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish ustivor yo'nalishlardan biri bo'lib "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim

xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash"[2] da ilg'or davlatlarni yetakchi universitetlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalarni o'rnatishga alohida urg'u berildi.

Ma'lumki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini o'tgan davrda isloh qilish natijasida sohada ma'lum o'zgarishlar qilingan bo'lsada, 2017 qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda[3] oliy ta'lim tizimida dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmaganligiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklarni bartaraf qilish va uni globallashtirish talablariga moslashtirish, sohani modernizatsiyalash maqsadida avvalambor Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yanada rivojlantirishga ustivor yo'nalish sifatida urg'u berildi.

Shuni takidlash kerakki, oxirgi yillarda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi turli sohalaridagi hamkorlik jadal rivojlandi. Ayni paytda, oliy ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ilm-fanni rivojlantirish borasida hamkorlik kengaydi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda Rossiya Federatsiyasining uch oliy ta'lim muassasasi — M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiallari samarali faoliyat ko'rsatib yurtimiz iqtisodiyoti va tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shdi.

Ikki davlat o'rtasidagi oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada kengayishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga ko'ra 2017 yil 4-5 apreldagi Rossiyaga qilgan rasmiy tashrifi yangi davrni boshlab berdi. Tashrif chog'ida ikki mamlakatning ilg'or tibbiy va ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida aloqalarni kengaytirish, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, tajriba almashish, shuningdek, O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi tibbiy markazlari filiallari va vakolatxonalarini tashkil etishda yaqin hamkorlik qilishga kelishib olindi[4].

Rossiyaning yetakchi tibbiyot markazlarining O'zbekistondagi filiallarini tashkil etish shuningdek, tibbiyot sohasiga kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan so'ng mamlakatda Rossiya universitetlarining filiallari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan izchil qadamlar qo'yildi. Natijada, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi akademik almashinuv hamda turli sohalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik yanada faollashdi. Dastlab, 2018 yilda mehnat bozori va mamlakat ehtiyojidan kelib chiqib yangilanayotgan O'zbekistonda iqtisodiyotni ishlab chiqarish-sanoat tarmog'i uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani joriy qilish maqsadida Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti («MISiS» MTTU) filiali faoliyati yo'lga qo'yildi[5].

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putinning 2018 yil 18-19 oktabr kunlari O'zbekistonga davlat tashrifi Rossiya Federatsiyasi bilan O'zbekistonning oliy ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasidagi o'zaro strategik hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarilishida muhim rol o'ynadi. Ikki davlatning qator yetakchi oliy ta'lim

muassasalarining tashabbusi bilan 2018 yil 18 oktabrda "Yangi iqtisodiyot uchun – yangi kadrlar" birinchi O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumini Toshkentda o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro forumda ikki davlat Prezidentlari administratsiyalari, Hukumat rahbarlari, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri va Rossiya Federatsiyasini Ta'lim va fan vaziri hamda Rossiyaning 80 dan ortiq nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirok etdi. Anjumanda O'zbekistonda Rossiya oliygo'hlari filiallarini ochish; akademik almashuvni kengaytirish; qo'shma ilmiy va innovatsion forumlar o'tkazish; ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish; OTMlar o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish ustivor yo'nalish qilib belgilandi. Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma «Double degree» (qo'shma ta'lim) dasturlari asosida talabalarni o'qitish, fakultet va kafedralar filiallarini tashkil qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish, maqsadli ilmiy izlanishlar olib borish, o'quv va ilmiy adabiyotlar almashish, yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish uchun zamin yaratildi. Ikki davlat o'rtasida 114 ta shartnoma va bitimlar imzolandi. Kelishuvga binoan O'zbekistonda Rossiya Federatsiyasining 6 ta nufuzli OTM filiali va 2 ta fakultetini ochish hamda 52 ta qo'shma ta'lim dasturini joriy etish rejalashtirildi[6].

Ayni paytda Oliy ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yanada kengaytirish hamda Rossiya oliy o'quv yurtlarini filiallarini faoliyat olib borishlarni xuquqiy-meyoriy asoslarini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston bilan Rossiya hukumati o'rtasida 2018 yil 19 oktabrda "O'zbekiston Respublikasida Rossiya Federatsiyasining oliy ta'lim bo'yicha ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi tug'risida" bitim imzolandi[7].

O'zbekiston fuqarolarini oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish va uni xalqarolashuviga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni[8] mamlakat oliy ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayoniga va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, shuningdek xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarini tashkil qilish va qo'shma dasturlar asosida kadrlar tayyorlashni yanada kengayishiga xizmat qildi.

Yaqin vaqtgacha O'zbekiston MDHning Rossiya bilan ta'limni o'zaro tan olish to'g'risida kelishuvga ega bo'lmagan yagona mamlakati edi. Oxirgi yillarda Rossiya OO'Yularida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalarni sonini bir necha barobar ortganligi Rossiya OO'Yularining bitiruvchilari diplomlarini tan olish tartibini osonlashtirish uchun normativ-huquqiy yordamni talab qildi. 2019 yil may oyida ikki mamlakatning ta'lim va malaka, ilmiy darajalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitim imzolandi[9].

Bitimni imzolahshini juda muhim qadam bo'lib, universitetlararo almashinuvni ko'payishiga, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan Rossiya OO'Yulari filiallarida tahsil olayotgan talabalar sonini o'sishiga va O'zbekiston OO'Yulari bilan Rossiya universitetlari o'rtasidagi ilmiy tadqiqotlarni faollashuviga katta imkoniyatlar yaratib berdi.

2019 yildan boshlab O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasining oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik jadal ravishda rivojlanib bordi. Shu yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan Toshkent shahrida Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, "MEI" milliy tadqiqot universiteti federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti, Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filialida Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti bilan hamkorlikda xalqaro fakulteti va Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali, Samarqand shahrida Rossiya

davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti filiallari tashkil qilindi [10].

Yuqoridagi oliy o'quv yurtlari filiallari 2019-2020 o'quv yilidan o'z ish faoliyatlarini boshladilar va dastlabki talabalarni qabul qildilar.

Moskva Energetika instituti filiali "Issiqlik energetikasi va issiqlik texnikasi", "Elektr energiyasi va elektrotexnika" bakalavriat yo'nalishiga 2019/2020 o'quv yilida 150 talaba qabul qilgan bo'lsa, 2020-2021 o'quv yilida qabul kvotasi ikki barobar ko'paytirilib kunduzgi bo'limga 250 ta, sirtqi bo'limga 50 talaba qabul qilindi, jumladan 30 foiz talabalar O'zbekiston Respublikasi davlat buyurtmasi hisobidan, talabalarning qolgan qismi xarajatlarini sanoat korxonalarini hisobidan grant asosida qoplandi. Shuningdek iqtisodiyot, menejment hamda Elektronika va nanoelektronika yo'nalishlarida 75 ta talaba tayyorlashga kirishildi [11].

O'zbekistonning jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyotining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini Rossiya ko'magida atom energetikasi asosida qondirish va zamonaviy yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida Toshkentda Rossiya milliy yadro tadqiqot institutining "Moskva injenerlik-fizika instituti" filiali tashkil qilindi. 2019-2020 o'quv yilida dastlabki eng yuqori bal to'plagan 100 nafar o'zbekistonlik yoshlar davlat granti asosida o'qishga qabul qilinib, bepul ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar [12].

Jahon siyosati va iqtisodiyoti, xalqaro munosabatlar va diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi savdo sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekistonda «Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti» Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining xorijdagi birinchi Toshkent shahridagi filiali tashkil etildi [13].

Keyingi yillarda ham ikki davlat o'rtasidagi ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik samarali rivojlanib bordi. Oxirgi

uch yilda respublikadagi Rossiya oliy o'quv yurtlarining filiallari soni 4 tadan 14 taga ko'paydi. Ayni paytda 115 ta OTM o'rtasida 240 dan ortiq shartnomalar imzolandi. 2021 yil 16-17 noyabrda Moskvada bo'lib o'tgan ikkinchi Rossiya-O'zbekiston ta'lim forumida ikki mamlakat hamkorligining yanada kengaygani e'tirof etildi. 2022-2023 o'quv yilida o'zbekistonlik talabalar uchun Rossiya oliy o'quv yurtlarida bepul ta'lim olish kvotalari 750 o'ringa ko'paytirilib, bu 2018 yilga nisbatan uch barobar ko'pdir [14]. 2021-2022 o'quv yilida Rossiya OTMlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 43 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa [15], 2023-2024 o'quv yilida 63 mingtaga yetdi [16].

O'zbekistonlik talabalarni aksariyat qismi, ya'ni 45000 tasi bakalavriyat yo'nalishida bilim oldi [17]. Rossiyaning kunduzgi universitetlariga o'qishga kirgan O'zbekiston fuqarolarini ko'pchiligi tibbiyot va muhandislik, ayniqsa metallurgiya, mashinasozlik, geologiya hamda foydali qazilmalarni qidirish, axborot va kompyuter texnologiyalari mutaxassisliklarini tanlagan bo'lsa, sirtqi talabalar esa iqtisodiyot va menejmentni afzal ko'rishadi [18].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Rossiya oliy ta'limining jozibadorligi asosida bir nechta omillar yotadi. Bu albatta birinchi navbatda o'zbekistonlik talabalarini til bilishdagi muammoni yo'qligi va ikki davlat oliy ta'lim tizimi o'xshashligi bo'lsa, yana bir omil davlatlararo kelishuvga asosan Rossiya tomonidan ajratiladiga kvotalar va ta'lim xarajatlarini yuqori emasligi hamda zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha sifatli ta'lim olish imkonini borligi hisoblanadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqarolashuvi jarayonining yanada kengaytirishda va uni sifatini globallashtirish davri talabalariga mos bo'lishida kelgusida Rossiya bilan bu sohada hamkorlikni yanada rivojlantirish albatta ijobiy natija beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Глумова, Е. П., Мухамедова, С. Х., Рашидова, Н. Б. (2022) Региональная образовательная среда в полилингвальных вузах России и Узбекистана. Язык и культура, № 59, с. 178–201., Троицкий, Е. Ф., Юн, С. М. (2021) Узбекистан: новый этап интернационализации высшего образования. Высшее образование в России, т. 30, № 10, с. 157–168., Davronova, M. N. (2023) History of Mutual Cooperation between Uzbekistan and the Russian Federation. In: 20th-Tech-Fest-2023: International Multidisciplinary Conference (Manchester, 25 November). Погорельская, А, Кобзева, О. (2023) Иностраные вузы в Узбекистане и задачи российскоузбекского образовательного сотрудничества. ЦЕИ ТГУ, Аналитический обзор. 20 марта 2023 г. № 10. <https://eurasian-studies.tsu.ru/analitika/publikacii/inostrannye-vuzy-v-uzbekistane-i-interesy-rossii/> с. 53–57.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисида. -Тошкент: "Адолат", 2017., Б 25.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида ги 2017 йил 20 апрель, ПҚ-2909-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/3171590?ONDATE=04.07.2023>
4. Ўзбекистон – Россия ҳамкорлигида янги уфқлар очган тарихий ташриф. <https://president.uz/uz/lists/view/383> (Мурожат этилган сана 28.09. 2025 й)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Федерал давлат автонوم олий таълим муассасаси «Миллий технологик тадқиқотлар университети «МИСиС»нинг Олмалиқ шаҳридаги филиали фаолиятини ташкил этиш тўғрисида 2018 йил 11 май, ПҚ-3714-сон Қарори. <https://lex.uz/uz/docs/3730001> (Мурожат этилган сана 18.09. 2025 й)
6. Astraxanda Rossiya-O'zbekiston OTM rektorlarining mintaqaviy forumi ish boshladi. <https://buxdu.uz/yangiliklar/1267/astraxanda-rossiya-ozbekiston-otm-rektorlarining-mintaqaviy-forumi-ish-boshladi/> (Мурожат этилган сана 21.10.2025)
7. Ўзбекистон Республикаси Хукумати билан Россия Федерацияси Хукумати ўртасида "Ўзбекистон Республикасида Россия Федерациясининг олий таълим бўйича таълим муассасалари филиалларини ташкил этиш ва уларнинг фаолият юритиши тўғрисида" Битим. 2018 йил 19 октябр. <https://lex.uz/docs/4317133> (Мурожат этилган сана 20.10.2025)
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ги 2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847-сон Фармони. <https://www.lex.uz/acts/4545884> (Мурожат этилган сана 20.11.2025)
9. Таълим, малака ва илмий даражаларни ўзаро тан олиш" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси хукумати билан Россия Федерацияси хукумати ўртасида Битим. 2019 йил 30 май. <https://lex.uz/docs/4374996>
10. «Тараққиёт стратегияси» маркази. <https://strategy.uz/index.php?news=782>
11. Ўзбекистон Республикаси энергетика Вазирлиги. <https://minenergy.uz/ru/news/view/5> (Мурожат этилган сана 25.01.2022)
12. Халқ сўзи 3 сентябрь 2019 йил.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Россия Федерацияси ташқи ишлар вазирлигининг Москва Давлат халқаро муносабатлар институти( университети)» Федерал давлат автоном олий таълим муассасасининг Тошкент шаҳридаги филиали фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги Қарори.2019 йил 11 февраль,ПҚ-4171-сон. [.https://lex.uz/docs/4198100](https://lex.uz/docs/4198100)(Мурожат этилган сана 25.11.2025)
14. День студента в России: сколько узбекистанцев празднуют Татьянин день. <https://uz.sputniknews.ru/20220125/skolko-uzbekistantsev-uchitsya-v-rossii-22375684.html/>(Мурожат этилган сана 26.11.2025 )
15. Россия Ўзбекистонда саккизта ОТМ филиалини очиши кутилмоқда. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/11/17/rus-universities/>(Мурожат этилган сана 26.11.2025 )
16. Количество студентов из Центральной Азии в вузах России растет. <https://e-cis.info/news/569/122978/>(Мурожат этилган сана 26.11.2025)
17. Погорельская. А, Кобзева.О. Иностранные вузы в Узбекистане и задачи российскоузбекского образовательного сотрудничества. ЦЕИ ТГУ, Аналитический обзор № 10., 20 марта 2023 г. <https://eurasian-studies.tsu.ru/analitika/publikacii/inostrannye-vuzy-v-uzbekistane-i-interesy-rossii/.C.2>(Мурожат этилган сана 05.11.2025)
18. Краснова. Г.А , Можяева. П. Н Перспективы набора узбекских студентов на обучение в российские вузы.//Аккредитация в образовании. №112 от 24.06.2019. [https://akvobr.ru/perspektivy\\_nabora\\_uzbekskih\\_studentov\\_na\\_obuchenie\\_v\\_rossiiskie\\_vuzy.html](https://akvobr.ru/perspektivy_nabora_uzbekskih_studentov_na_obuchenie_v_rossiiskie_vuzy.html) (Мурожат этилган сана 05.11.2025)